

("The Monkey and the dolphin" Hikoyasi asosidagi tahlil)

Yo'ldosheva Mahbuba

Ziyayeva Feruza

Annotatsiya: Bu maqolani tanlashdan maqsad shuki, badiiy, stilistik tarjima haqida ma'lumot berish va shu orqali hikoya va she'riy janrlarni ham tahlil qilishni o'rghanishdir. Tarjima tillararo muloqotning muhim jihatidir. Tarjimaning asosiy maqsadi – manba tilidagi xabarni maqsadli tilda aniq va tushunarli ifodalashdir. Bu jarayonda mazmunning saqlanishi muhim bo'lsa-da, tilning strukturaviy tafovutlari tufayli asl shaklni saqlab qolish ba'zan murakkab bo'lishi mumkin. Stilik va hissiy jihatlarni to'g'ri yetkazish uchun tarjimonlar turli lingvistik almashadirishlar va usullardan foydalanadilar. Bu jarayon tarjimada ekvivalentlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida o'quvchiga asl matnning ma'nosini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: stilistik jihatlar, tarjima, tillararo muloqot, ekvivalentlik, Lingvomadaniyat aspektlari.

Abstract: The purpose of choosing this article is to provide information about artistic and stylistic translation and thereby learn to analyze narrative and poetic genres. Translation is an important aspect of interlanguage communication. The main goal of translation is to clearly and comprehensibly express the message in the source language in the target language. While the preservation of content is important in this process, preserving the original form can sometimes be difficult due to the structural differences of the language. Translators use a variety of linguistic substitutions and techniques to accurately convey stylistic and emotional aspects. This process is aimed at ensuring equivalence in the translation, which in turn helps the reader to understand the meaning of the original text correctly.

Key words: stylistic aspects, translation, interlanguage communication, equivalence, Linguistic aspects.

Tarjimada muqobil ekvivalent topish “Kundalik aloqa vositasi bo‘lgan tilga nisbatan badiiy adabiyot tili – deb yozadi Fyodorov, -bu so‘z ustalari tomonidan qayta ishlangan tildir”. [1; 24] Ma’lumki, har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy ish hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasi esa alohida yondashuvni talab etishi, mahorat va san’atkorlikni taqozo qilishi jihatidan san’at iqlimidir. Buni o‘zbek tarjimashunoslik fanining darg’asi G’aybull Salomov shunday asoslaydi: “Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun boshqa tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab etadi. Bunday tarjima san’at darajasidagi tarjima asar sirasiga kiradi” [2; 27] Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko‘hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Yer yuzining turli qit’alari va mintaqalarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan odarnzod nasllari o‘z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaat larini tarjima vositasida ham namoyon qildi. Uni xalqlararo aloqa vositasiga aylantirdi, undan doim sarnarali tarzda foydalandi. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat qavmlari bir-birlaridan xabardor bo‘ldi, o’zaro borish-kelish qildi. Shu bilan birga savdo, hunarmandchilik, uy-joy, yo‘l qurilishi, dehqonchilik, aslaha-anjomsozlik kabi sohalarni asrma-asr tadrijiy rivojlantirib, yo‘lga qo‘yib bordi. Odam qavmlari qulay va xatarsiz hayot kechirishni bir-biridan o‘rgandi, bir-biriga yo‘l ko‘rsatdi, bir-biridan ulgi oldi va rang-barang madaniyatlarning jozibali qirralarini bir-biriga narnoyon qildi.

Badiiy tarjimada lingvomadaniyat aspektlarining yanada chuqurroq va to’liqroq yoritilishida nimalarga e’tibor berishimiz kerakligini keeling ko’rib chiqamiz:

1. Transformatsion metodlardan foydalanish, ya’ni murakkab va qo’shma gaplarni oddiy sodda gaplarga aylantirib, tarjima orqali uzatish metodi. Bu metodga misol qilib grammatik transformatsiya (bu jarayonda so’zma- so’z

tarjima xavfli hisoblanadi), sintaktik transformatsiya (asl matnni ma’no va leksik jihatdan ma’nosи o’zgarmagan holda ekvivalent matnga o’girish), leksik transformatsiyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

2.Matnni tarjimadan oldin tahlil qilish metodi. Matn tuzilishini, tarjima matnni yetqazib beruvchi auditoriyani, ma’lumot tarkibini,matn janrini, tarjima maqsadini tarjimani amalga oshirmasdan tahlil qila olish.

3.Atoqli otlar, geografik nomlar, millat nomlarining tarjimasini bilish

4.Ingliz tilidagi fe’llar nominalizatsiyasi va ularning shakllarinin tarjimasi

5.Siyosiy idiomalar tarjimasi

6.Antonimlar tarjimasidagi o’ziga xos xususiyatlar

7.Qisqartma so’zlar tarjimasi

8.Tarjimadagi siyosiy tuzatishlar tilga oid taktlardan foydalanish

Hozir "the monkey and the dolphin" hikoyasining tahlilini birgalikda ko‘rib chiqamiz.

One day long ago, some sailors set out to sea in their sailing ship

Kunlarning birida, bir nechta dengizchilar yelkanli kemalarida dengizga sayohatga yól olishdi.

O‘xhash jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "sailors", " sea", "ship" So'zlari ayni holatda o‘zbek tiliga o‘zgarmasdan tarjima qilinadi.

Farqli jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "one day long ago" so‘z birikmasi o‘zbek tiliga "kunlarning birida deb tarjima qilindi. Bu yerda 4 ta o‘z ma'nosiga ega so‘z mavjud . Ammo ularni alohida alohida tarjima qilinsa, bu yerda kutilgan ma'no chiqmaydi.

b) Ingliz tilidagi " their sailing ship" so‘z birikmasi o'zbek tiliga tarjima qilinganda yelkanli kemalarida deb tarjima qilinadi. Chunki bu yerdagi "their" Possessive olmosh hisoblanadi. Va ko‘plikni bildirib keyingi so‘z bilan birga tarjima qilinadi.

c) Ingliz tilidagi " set out" so‘z birikmasi o‘zbek tiliga "chiqmoq" deb tarjima qilinadi . Ammo men bu yerda badiiylikni ifodalash uchun "sayohatga yo‘l olmoq" so'z birikmasidan foydalandim.

One of them brought his pet monkey along for the long journey.

O‘xhash jihatlari:

Ulardan biri uy maymunini ham uzoq sayohatga olib keldi.

a) Ingliz tilidagi "monkey", " Journey" so‘zlari o‘zbek tiliga o‘zgarmasdan tarjima qilinadi.

Farqli jihatlari:

a) ingliz tilidagi "brought" So‘zi sodda tub so‘z hisoblanadi. Ammo o‘zbek tiliga tarjima qilinganda qo‘shma so'z holida tarjima qilindi.

b) Ingliz tilidagi "his pet monkey" so‘zlari o‘zbek tiliga uy maymunini " Deb tarjima qilindi. Chunki bu yerdagi "his possessive olmosh hisoblanadi.

When they were far out at sea, a terrible storm overturned their ship.

Ular dengizdan ancha uzoqlashganda daxshatli bo‘ron kemasini ag‘darib yubordi.

O‘xhash jihatlari:

a) Ingliz tilidagi " sea", "storm", " ship" so'zlari o‘zbek tiliga tarjima qilinganda o‘z holicha o‘zgarmasdan tarjima qilinadi.

Farqli jihatlari:

a) bu gap ingliz tilida qo‘shma gap hisoblanadi. Ammo o‘zbek tiliga tarjima qilinganda sodda gapga aylanib ketdi.

Everyone fell into the sea, and the monkey was sure that he would drown.

Hamma dengizga tushib ketdi, va maymun ham cho‘kib ketishiga ishonch hosil qilgan edi.

O‘xhash jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "sea", " monkey " so'zlari o‘zbek tiliga tarjima qilinganda o‘z holida tarjima qilinadi.

Suddenly a dolphin appeared and picked him up.

To‘satdan delfin paydo bo‘ldi va uni ko‘tarib oldi.

a) Ingliz tilidagi "dolphin" so'zi o'zbek tiliga o'zgarmasdan tarjima qilinadi.

Farqli jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "appeared" fe'li sodda fe'l hisoblanadi. Ammo o'zbek tiliga tarjima qilinganda qo'shma fe'l tarzida tarjima qilindi.

They soon reached the island and the monkey came down from the dolphin's back. The dolphin asked the monkey, "Do you know this place?"

Ular orolga tezda yetib kelishdi va maymun delfinning orqasidan tushdi. Delfin maymundan :"sen bu joyni bilasanmi" deb so'radi.

O'xshash jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "island", "monkey", "dolphin", "Place" So'zlari o'zbek tiliga o'zgarmasdan tarjima qilinadi.

The monkey replied "yes, I do. In fact, the king of the island is my best friend. Do you know that I am actually a prince? "

"Ha, bilaman. Aslida bu orolning shohi eng zo'r do'stim. Hozirgi vaqtida mening shahzoda ekanligimni bilasanmi? "-deb maymun javob qaytardi.

O'xshash jihatlari:

a) ingliz tilidagi "monkey", "king", "island", "friend", "prince" so'zlari o'zbek tiliga hech qanday o'zgarishsiz tarjima qilinadi.

Farqli jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "In fact" so'z birikmasi o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda "Aslida" deb bitta so'z holida tarjima qilindi.

b) Ingliz tilidagi "The king of the island" 5 ta so'zdan iborat. Ammo o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda "orolning shohi" deb tarjima qilindi. Bu yerdagi "of" predlogi "-ning" deb tarjima qilindi.

c) Ingliz tilidagi "Do you know that" so'z birikmasi o'zbek tiliga "bilasanmi" deb bitta so'z holida tarjima qilindi. Bu yerdagi "do", "you", "know", "that" so'zlarining har birining ma'nosi bor. Ammo har biri tarjima qilinganda badiiylik buziladi va bitta so'z holida tarjima qilinadi.

d) Ingliz tilidagi "my best friend" so‘zi o‘zbek tiliga "do‘stim" deb tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi "my" egalik olmoshi hisoblanadi va bu o‘zbek tiliga alohida tarjima qilinmaydi va "do‘stim" holida tarjima qilinadi.

e) Ingliz tilidagi "reply" so‘zini o‘zbek tiliga "javob qay tarmoq" deb so‘z birikmasi holida tarjima qilindi.

Knowing that no one lived on the island, the dolphin said, "well, well, so you are a prince! Now you can be a king! "

Orolda biron bir kishi hayot kechirmasligini i bilardi, "Yaxshi, yaxshi, Sen shahzodasan! Hozirdan shoh bo‘la olishing mumkin! "-deb Delfin so‘z aytidi.

O‘xshash jihatlari:

a) ingliz tilidagi "island", "Dolphin", "Prince", "King" so‘zlari o‘zbek tiliga o‘zak o‘zgarmasdan tarjima qilinadi.

Farqli jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "lived" so‘zi "yashamoq" deb o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Ammo men buning badiiy muqobili sifatida "hayot kechirmoq" deb oldim.

b) Ingliz tilidagi "Lived" so‘zi bu gapda bo‘lishli shaklda turibdi . Ammo o‘zbek tiliga tarjima qilinganda " Hayot kechirmadi"deb tarjima qilindi. Chunki bu gap tarkibida "no one" olmoshi qatnashgan.

c) Ingliz tilidagi "Knowing that" dagi "knowing" So‘zi gerund shaklda turibdi. Ammo shu so‘z gap tarkibida kesim bo‘lib kelyapti chunki bu relative clauses ga kiradigan gap hisoblanadi. "that" So‘zi bu yerda butun bir gapga ishora qilib kelyapti.

The monkey asked, "How can I be a king? "

"Qanday qilib shoh bo‘lishim mumkin! "- deb maymun savol bilan murojaat qildi.

O‘xshash jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "Monkey", "King" So‘zlari o‘zbek tiliga o‘zgarmasdan tarjima qilinadi.

Farqli jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "asked" so'zi o'zbek tiliga "so'ramoq" deb formalda tarjima qilinishi kerak . Ammo men matnning badiiyroq bo'lishi uchun "savol bilan murojaat qildi" deya tarjima qildim.

As the dolphin started swimming away, he answered, "That is easy. As you are the only creature on this island, you will naturally be the king! "

Delfin boshqa yo'nalishga suzishni boshlagan vaqtida, u javob berdi "Bu oson. Sen bu oroldagi yakka-yu yagona tirik mavjudotsan, tabiiyki sen qirol bo'la olasan! "

O'xshash jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "dolphin", " easy ", " Island ", " King" so'zlari o'zbek tiliga o'zgarmasdan tarjima qilinadi.

Farqli jihatlari:

a) Ingliz tilidagi "away" predlogi o'zbek tiliga tarjima qilinganda, "boshqa yo'nalishga" deb 2 ta so'z holida tarjima qilindi.

b) Ingliz tilidagi "creature" so'zi sodda tub so'z hisoblanadi. Ammo o'zbek tiliga tarjima qilinganda "tirik mavjudot" deb qo'shma so'z holida tarjima qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.В.Федоров. Язык и стиль художественного произведения. М., ГИХЛ. 1963.
2. G'.Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 1983
- 3.Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma II.G'ofurov, O,Mo'minov, N.Qambarov. - Toshkent : Tafakkur-Bo'stoni, 2012